

Nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan litsenziya olish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziya muddatini uzaytirish va litsenziya bitimiga o'zgartirish kiritish bo'yicha tushgan arizalar to'g'risida tahliliy ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 100-sonli qaroriga asosan litsenziya talabgorlaridan nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasi ishchi organi (Davlat test markazi)ga litsenziya olish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziya muddatini uzaytirish, litsenziyani bekor qilish va litsenziya bitimiga o'zgartirish kiritish bo'yicha 2015 yilda jami 486 ta (2015 yil 1 iyun holatiga 198 ta) ariza kelib tushgan. 2016 yil 1 iyun holatiga 294 ta arizalar kelib tushgan bo'lib, bundan 170 tasi kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, 84 tasi maktabdan tashqari, 30 tasi maktabgacha, 9 tasi umumiy o'rta va 1 tasi oliy ta'lim turi bo'yicha arizalarni tashkil etadi. Tahlil natijasidan 2015 yil 1 iyun holatiga nisbatan, jami tushgan arizalar soni 48,5 foizga oshganligini kuzatish mumkin.

2016 yil 1 iyun holatiga litsenziya talabgorlaridan kelib tushgan arizalar soni (oylar va ta'lim turlari kesimida)

№	Oylar	Soni	Shu jumladan, ta'lim turlari bo'yicha				
			Maktabgacha ta'lim	Umumiy o'rta ta'lim	Maktabdan tashqari	Kadrlar malakasi oshirish va ularni qayta tayyorlash	Oliy ta'lim
1	Yanvar	37	6	1	2	28	0
2	Fevral	59	7	2	13	37	0
3	Mart	54	5	0	14	34	1
4	Aprel	70	6	4	24	36	0
5	May	74	6	2	31	35	0
Jami:		294	30	9	84	170	1

Litsenziya talabgorlaridan litsenziya olish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziya muddatini uzaytirish, litsenziyani bekor qilish va litsenziya bitimiga o'zgartirish kiritish bo'yicha arizalar haftaning dushanba va juma kunlari soat 10-00 dan 17-00 gacha qadar (13-00 dan 14-00 gacha tushlik) Davlat test markazi mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinadi. Shuningdek, arizalar Davlat test markazi rasmiy veb saytida hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy etilgan "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olish" interaktiv xizmatidan foydalanib yuborilishi mumkin.

**2016 yil 1 iyun holatiga litsenziya talabgorlaridan kelib tushgan
arizalar soni**
(oylar va ta'lim turlari kesimida)

